



O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING INSTITUTSIONAL DETERMINANTLARI VA MAKROIQTISODIY IMPLIKATSIYALARI

prof. Kurpayanidi Konstantin

Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti

ORCID: 0000-0001-8354-1512

antinari@gmail.com

prof. Ashurov Mahammadjon

Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti,

Farg'ona davlat texnika universiteti

ORCID: 0000-0001-8294-5910

m.ashurov@fstu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotning institutsional determinantlari va makroiqtisodiy oqibatlari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda rasmiy statistika, xalqaro baholashlar, normativ-huquqiy baza hamda nazariy yondashuvlar integratsiyalangan holda yashirin iqtisodiyot fiskal yuklama, tartibga solish murakkabligi, davlat boshqaruvi sifati, korrupsiya, naqd pul aylanishi va ijtimoiy ishonch bilan bog'liq ko'p darajali fenomen sifatida talqin qilindi. O'zbekiston bo'yicha kuzatilmaydigan iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi, tarmoqlar bo'yicha notekis taqsimoti va rasmiy sektor bilan o'zaro aloqalari ochib berildi. Mualliflar yashirin iqtisodiyotga qarshi siyosatni repressiv choralar bilan cheklash emas, balki rasmiy sektor jozibadorligini oshirish, raqamlashtirishni chuqurlashtirish va institutsional shaffoflikni kuchaytirish asosida qurish zarurligini asoslaydilar.

Kalit so'zlar: institutsional determinantlar, yashirin iqtisodiyot, kuzatilmaydigan iqtisodiyot, fiskal siyosat, raqamlashtirish, O'zbekiston.

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ И МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИЕ ИМПЛИКАЦИИ ТЕНЕВОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ

проф. Курпаяниди Константин

Международный институт пищевых технологий и инженерии

проф. Ашуров Махаммаджон

Международный институт пищевых технологий и инженерии,

Ферганский государственный технический университет

Аннотация. В статье комплексно исследуются институциональные детерминанты и макроэкономические последствия теневой экономики в Узбекистане. На основе интеграции официальной статистики, международных оценок, нормативно-правовой базы и современных теоретических подходов теневая экономика интерпретируется как многоуровневый феномен, связанный с фискальной нагрузкой, сложностью регулирования, качеством государственного управления, коррупцией, доминированием наличных расчетов и дефицитом общественного доверия. Обосновано, что эффективная политика должна сочетать контрольные меры с повышением привлекательности формального сектора, углублением цифровизации и усилением институциональной прозрачности.

Ключевые слова: институциональные детерминанты, теневая экономика, ненаблюдаемая экономика, фискальная политика, цифровизация, Узбекистан.

INSTITUTIONAL DETERMINANTS AND MACROECONOMIC IMPLICATIONS OF THE SHADOW ECONOMY IN UZBEKISTAN

prof. **Kurpayanidi Konstantin**

International Institute of Food Technology and Engineering

prof. **Ashurov Mahammadjon**

International Institute of Food Technology and Engineering,

Fergana State Technical University

Abstract. *The paper provides a comprehensive analysis of the institutional determinants and macroeconomic effects of the shadow economy in Uzbekistan. By integrating official statistics, international assessments, the regulatory framework, and contemporary theoretical approaches, the shadow economy is interpreted as a multi-layered phenomenon associated with fiscal pressure, regulatory complexity, governance quality, corruption, cash-based transactions, and deficits of social trust. The study reveals the scale of the unobserved economy, its uneven sectoral distribution, and its interaction with the formal sector. It is argued that an effective policy should combine control measures with stronger incentives for formalisation, deeper digitalisation, and enhanced institutional transparency.*

Keywords: *institutional determinants, shadow economy, unobserved economy, fiscal policy, digitalisation, Uzbekistan.*

Kirish.

Yashirin iqtisodiyot zamonaviy iqtisodiy tizimlarning eng murakkab va ko'p qatlamli fenomenlaridan biri bo'lib, u xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining davlat nazorati, statistik hisob va soliqqa tortish mexanizmlaridan qisman yoki to'liq tashqarida amalga oshiriladigan segmentlarini qamrab oladi. Ushbu hodisa faqat noqonuniy operatsiyalar yig'indisi sifatida emas, balki rasmiy va norasmiy institutlar o'rtasidagi nomutanosiblik, tranzaksiya xarajatlarining yuqoriligi, tartibga solishning murakkabligi va davlat institutlariga nisbatan ishonchning cheklanganligi bilan belgilanadigan institutsional muhit mahsuli sifatida talqin qilinishi lozim (Abduganiev, J. 2025; Dell'Anno, R. 2022; World Economics. 2026; Kurpayanidi, K. I. 2026).

Mazkur masalaning dolzarbligi O'zbekiston iqtisodiyotida kuzatilmaydigan va yashirin faoliyat ulushining hanuz yuqori darajada saqlanib qolayotganligi bilan izohlanadi. Rasmiy statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil yakunlari bo'yicha kuzatilmaydigan iqtisodiyot hajmi 498,04 trln so'mni yoki YaIMning 26,9 foizini tashkil etgan. Shu bilan birga, xalqaro baholashlar O'zbekiston norasmiy iqtisodiyotining ko'lamini bundan ham yuqoriroq diapazonda ko'rsatmoqda (World Economics. (2026; Kurpayanidi, K. 2026). Bunday tafovutning o'ziyoq ushbu fenomenni baholash metodologiyasining murakkabligini, shuningdek, milliy statistik tizim va xalqaro kompozit indekslar o'rtasidagi metodik farqlarni ko'rsatadi.

Yashirin iqtisodiyotning makroiqtisodiy oqibatlari ko'p qirrali. Bir tomondan, u soliq bazasining torayishiga, fiskal imkoniyatlarning pasayishiga, davlat dasturlarini moliyalashtirishning cheklanishiga va statistik ko'rsatkichlarning buzilishiga olib keladi. Ikkinchi tomondan, norasmiy bandlik va qayd etilmagan kichik xo'jalik faoliyati qisqa muddatda daromad yaratish, mehnat bozoridagi bosimni yumshatish va aholining ayrim qatlamlari uchun moslashuv mexanizmi vazifasini ham bajaradi (Abdullaeva, M. 2021; Kurpayanidi, K. 2025). Shu sababli yashirin iqtisodiyot faqat repressiv vositalar bilan emas, balki rag'batlantiruvchi va institutsional islohotlar bilan uyg'un holda boshqarilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2024-yil 16-yanvarda o'tkazilgan iqtisodiy rivojlanish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda qurilish, xizmatlar va sanoatning ayrim yo'nalishlarida yashirin aylanmalar halol raqobat, byudjet tushumlari va bandlikning rasmiy ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani alohida qayd etildi. Bu holat yashirin iqtisodiyot muammosini faqat statistik yoki huquqiy masala sifatida emas, balki modernizatsiya, raqobatbardoshlik va davlat boshqaruvi sifati bilan bog'liq strategik muammo sifatida ko'rish zarurligini kuchaytiradi.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotning institutsional determinantlarini tizimli aniqlash, uning makroiqtisodiy oqibatlarini tahlil qilish hamda milliy sharoitga mos institutsional siyosiy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

(i) yashirin iqtisodiyotning nazariy talqinlari va kategoriyaviy chegaralarini aniqlashtirish;

(ii) mavjud ilmiy manbalar asosida research gapni ajratish;

(iii) O'zbekiston sharoitida determinantlar va ularning sabab-oqibat mexanizmlarini tizimlashtirish;

(iv) mavjud statistik va analitik materiallar asosida makroiqtisodiy ko'lam va tarmoq xususiyatlarini baholash;

(v) qisqartirish strategiyasi uchun institutsional va raqamli mexanizmlarni taklif etish.

Maqolaning ilmiy yangiligi uch jihatda namoyon bo'ladi. Birinchidan, yashirin iqtisodiyot fenomeni O'zbekiston sharoitida alohida ko'rsatkichlar yig'indisi emas, balki fiskal, mehnat, boshqaruv, shaffoflik va ijtimoiy ishonch omillarining o'zaro ta'siri natijasida shakllanuvchi kompleks mega-institut sifatida talqin qilinadi. Ikkinchidan, rasmiy statistika, xalqaro baholashlar va normativ-huquqiy kontekstni integratsiyalovchi ko'p darajali analitik ramka taklif etiladi. Uchinchidan, nazorat choralari kuchaytirish bilan cheklanmaydigan, balki rasmiy sektor jozibadorligini oshirishga qaratilgan muvozanatli siyosiy yondashuv ishlab chiqiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Yashirin iqtisodiyotga oid ilmiy diskursda yagona, barchani qanoatlantiruvchi universal ta'rif mavjud emas. Bu holat fenomenning o'zi ko'p qatlamli, turli mamlakatlarda turlicha institutsional shakllarda namoyon bo'lishi bilan izohlanadi. Dell'Anno (2022) yashirin yoki norasmiy iqtisodiyotga oid nazariyalarni umumlashtirar ekan, ushbu tushuncha bir vaqtning o'zida iqtisodiy, huquqiy, sotsiologik va siyosiy tarkibiy qismlarga ega ekanini ko'rsatadi. Makarova, Chusov va Kravtsova ushbu hodisani mazmun va tuzilma nuqtai nazaridan tahlil qilib, uning rasmiy tizim bilan antagonistik emas, ko'pincha simbiotik munosabatlarda bo'lishini ta'kidlaydilar.

Klassik yondashuvlarda yashirin iqtisodiyot ko'proq noqonuniy iqtisodiy faoliyat bilan bog'langan bo'lsa, keyinchalik ilmiy qarashlarda uning "oq", "kulrang" va "qora" segmentlari ajratila boshlandi. Bu yondashuvning nazariy ildizlari E. Sutherlandning (2017) oq yoqali jinoyatchilik to'g'risidagi ishlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u iqtisodiy qoidabuzarliklarni oddiy jinoyat xatti-harakatlardan ko'ra murakkabroq, yuqori institutsional maqomga ega aktorlar tomonidan sodir etiladigan tizimli og'ishlar sifatida talqin etadi. Mazkur konsepsiya zamonaviy iqtisodiy nazariyada korporativ manipulyatsiyalar, huquqiy bo'shliqlardan foydalanish, hisobotlarni buzib ko'rsatish va davlat bilan yaqin aloqalar asosida imtiyozli rejimlar yaratishni yashirin iqtisodiyotning yuqori segmentlari sifatida ko'rish imkonini beradi.

Postsovet va tranzitiv iqtisodiyotlar bo'yicha adabiyotlar yashirin iqtisodiyotni institutsional zaifliklar, korrupsiya, ishonch taqchilligi va ma'muriy murakkablik bilan bog'lashga moyil. Abdullaeva (2021) ushbu hodisani iqtisodiy tizimning barqarorligiga putur yetkazuvchi va ijtimoiy munosabatlarda deformatsiyalarni kuchaytiruvchi jarayonlar majmui sifatida izohlaydi. Axmedov (2023) hamda Rakhmanov (2023) O'zbekiston materiallari asosida

solliqqa tortish va moliyaviy instrumentlar tizimini takomillashtirish orqali norasmiy segmentni legallashtirish mumkinligini ko'rsatadilar. Burov, Xudaynazarov va Mamatqulov (2020) esa O'zbekistonda yashirin iqtisodiyot hajmini baholashda tanlama so'rov usulining afzallik va cheklovlarini ochib berib, monetar va bilvosita ko'rsatkichlarning zarurligini asoslaydilar.

So'nggi yillarda O'zbekiston bo'yicha manbalarda muammo tobora ko'proq modernizatsiya, raqamlashtirish va institutsional islohotlar bilan bog'liq kontekstda talqin qilinmoqda. Abduganiyevning (2025) tadqiqotida milliy tendensiyalar xalqaro tajriba bilan qiyosiy yoritilib, norasmiy iqtisodiyot ulushini qisqartirish davlat boshqaruvi sifati, biznesni yuritish xarajatlari va normativ muhitga bevosita bog'liq ekani ko'rsatiladi. Kurpayanidining (2024) ishlari esa fenomenni ko'p o'lchamli tarzda sharhlab, modernizatsiya jarayonlarida rasmiy va norasmiy institutlar o'rtasidagi ziddiyatlar iqtisodiy islohotlar samaradorligini pasaytirishini ta'kidlaydi. Ashurovning (2023a, 2023b) raqamli iqtisodiyot va innovatsion tizim haqidagi ishlari ham yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashda axborot assimetriyasini qisqartirish va raqamli institutsiyalarni mustahkamlashning muhimligini nazariy jihatdan asoslaydi.

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlar tahlili ikki muhim bo'shliqni ko'rsatadi. Birinchi bo'shliq - O'zbekiston bo'yicha tadqiqotlarning katta qismi muammoni alohida omillar, masalan, soliq yuklamasi yoki korrupsiya darajasi bilan izohlab, determinantlar o'rtasidagi institutsional o'zaro bog'liqlikni yetarli darajada ochib bermaydi. Ikkinchi bo'shliq - ko'plab ishlar fenomenni hajm jihatidan tavsiflash bilan cheklanib, uning makroiqtisodiy oqibatlarini sektorlar, bandlik, fiskal barqarorlik va davlat siyosati sifati bilan bog'lovchi integral tahlilni yetarli ishlab chiqmaydi (Abduganiev, J. 2025; Dell'Anno, R. 2022; Makarova, N. N., Chusov, I. A., & Kravtsova, O. V. 2023). Mazkur maqola aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, determinantlar, oqibatlar va siyosat choralari yagona analitik konturda ko'rib chiqadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot metodologiyasi nazariy-sintetik va empirik-deskriptiv yondashuvlarning integratsiyasiga asoslanadi. Ishda mantiqiy abstraksiya, induksiya, deduksiya, qiyosiy tahlil, kontent-tahlil va iqtisodiy-statistik umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Empirik baza sifatida O'zbekistonning rasmiy statistik ma'lumotlari, qonunchilik hujjatlari, ekspert baholari, xalqaro analitik manbalar hamda mualliflar umumlashtirgan ikkilamchi ma'lumotlar bazasi olindi.

Mazkur maqolada to'liq iqtisodetrik baholash vazifasi qo'yilmagan bo'lsa-da, yashirin iqtisodiyotning determinantlarini tizimli yoritish uchun MIMIC-turidagi konseptual modeldan foydalanildi. Uning analitik mantiqi quyidagicha ifodalanadi:

$$SE_t = \beta_1 Tax_t + \beta_2 Reg_t + \beta_3 Corr_t + \beta_4 Lab_t + \beta_5 Cash_t - \beta_6 Trust_t - \beta_7 Digital_t + \varepsilon_t,$$

bu yerda SE_t - yashirin iqtisodiyotning latent hajmi;

Tax_t - fiskal yuklama;

Reg_t - tartibga solish zichligi;

$Corr_t$ - korrupsiya va rent-izlovchi xatti-harakatlar;

Lab_t - mehnat bozorini tartibga solishning qat'iyligi;

$Cash_t$ - naqd pul aylanmasining ustunligi;

$Trust_t$ - davlat institutlariga nisbatan ishonch;

$Digital_t$ - raqamlashtirish darajasi.

Ushbu latent o'zgaruvchi fiskal yo'qotishlar, rasmiy bandlikning pastligi, hisobga olinmagan qo'shilgan qiymat ulushi va naqd hisob-kitoblar ustunligi kabi kuzatiladigan indikatorlarda namoyon bo'ladi (Burov, V. Yu., Khudaynazarov, A. K., & Mamatkulov, I. A. 2020; Dell'Anno, R. 2022; Schneider, F. 2003).

Metodologik jihatdan, yashirin iqtisodiyotga nisbatan bir nechta baholash yondashuvlari mavjud:

- (i) to'g'ridan-to'g'ri so'rov va audit usullari;
- (ii) monetar yondashuv;
- (iii) elektr energiyasi iste'moli va boshqa fizik indikatorlar;
- (iv) MIMIC modellari;
- (v) milliy hisoblar tizimida bilvosita to'ldirish yondashuvi (Burov, V. Yu., Khudaynazarov, A. K., & Mamatkulov, I. A. 2020; Dell'Anno, R. 2022; Schneider, F. 2003).

O'zbekiston sharoitida rasmiy statistik tizimning "kuzatilmaydigan iqtisodiyot" kategoriyasi aynan bilvosita hisob-kitob va to'ldirish amaliyotlariga tayanadi. Shu sababli, mazkur maqolada rasmiy statistika va xalqaro baholashlarni bir-birini to'ldiruvchi emas, balki turli metodologik nuqtai nazarlar sifatida sharhlash maqsadga muvofiq deb topildi.

Tadqiqot doirasida quyidagi ishchi gipotezalar ilgari surildi.

- fiskal va ma'muriy yuklama yuqori bo'lgan sharoitda iqtisodiy agentlarning norasmiy sektorga o'tish ehtimoli ortadi.
- korrupsiya va davlat boshqaruvi sifatining pastligi yashirin iqtisodiyotning "oq" va "kulrang" segmentlarini kengaytiradi.
- raqamlashtirish, elektron to'lovlar va ma'lumotlar integratsiyasi chuqurlashgani sari yashirin iqtisodiyotning tranzaksion afzalliklari pasayadi.
- yashirin iqtisodiyotning yuqori ulushi qisqa muddatda moslashuv funksiyasini bajargan bo'lsa-da, o'rta va uzoq muddatda fiskal va institutsional samaradorlikni susaytiradi.

Sifat tahlili komponenti sifatida normativ-huquqiy hujjatlar va siyosiy nutqlarning kontent-tahlili amalga oshirildi. Xususan, ochiqlik, jamoatchilik nazorati, korrupsiyaga qarshi kurashish va davlat xaridlari bo'yicha qonunchilik hamda so'nggi siyosiy qarorlar tahlili davlatning yashirin iqtisodiyotga nisbatan institutsional reaksiyasini tushunish imkonini berdi. Bu yondashuv tadqiqotning amaliy qiymatini oshirib, muammoni faqat iqtisodiy emas, balki institutsional boshqaruv kontekstida sharhlash imkonini beradi.

O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotning institutsional determinantlari.

Yashirin iqtisodiyotning shakllanishi tasodifiy yoki individual og'ishlar natijasi emas; u iqtisodiy agentlarning muayyan institutsional muhitga moslashuv strategiyasi sifatida qaralishi lozim. O'zbekiston sharoitida ushbu moslashuv fiskal yuklama, tartibga solish murakkabligi, mehnat bozoridagi rigidlik, naqd pul ustunligi, nazorat va shaffoflik institutlarining notekis rivojlanganligi, shuningdek, davlatga nisbatan ishonch darajasi bilan belgilanadi (Abduganiev, J. 2025; Axmedov, F. 2023; Kurpayanidi, K. 2024; Kurpayanidi, K. I. 2025).

Birinchi determinant - fiskal yuklama. Soliq stavkalarining nominal darajasi o'z-o'zicha hal qiluvchi omil bo'lmasligi mumkin, biroq soliqqa tortish bazasining kengligi, hisobot topshirish xarajatlari, soliq ma'muriyatchiligidagi murakkablik va jazolarning subyektiv qo'llanishi bilan birga u yashirin iqtisodiyot uchun kuchli rag'bat yaratadi. Ayniqsa mikro va kichik biznes segmentida rasmiylashuv xarajatlari kutilayotgan foydadan yuqori baholansa, agentlar norasmiy shakllarni afzal ko'rish ehtimoli ortadi (Burov, V. Yu., Khudaynazarov, A. K., & Mamatkulov, I. A. 2020; Dell'Anno, R. 2022; Schneider, F. 2003).

Ikkinchi determinant - ijtimoiy badallar va mehnat bozorini tartibga solish. Rasmiy bandlikka doir talablar, ish haqi fondiga bog'liq to'lovlar, mehnat xavfsizligi va hujjatlashtirish majburiyatlari katta korxonalarda maqbul bo'lishi mumkin, biroq kichik ish beruvchilar uchun yuqori transaksion xarajatlarni vujudga keltiradi. Natijada norasmiy yollash, ikki tomonlama buxgalteriya va haqiqiy ish haqi hajmini yashirish kabi amaliyotlar paydo bo'ladi (Burov, V. Yu., Khudaynazarov, A. K., & Mamatkulov, I. A. 2020; Makarova, N. N., Chusov, I. A., & Kravtsova, O. V. (2023).

Uchinchi determinant - davlat boshqaruvi sifati va korrupsiya. Qonun ustuvorligining zaifligi, tekshiruvlarning selektivligi, davlat xaridlarida shaffoflik muammolari va ruxsat berish tizimidagi rent izlash xatti-harakatlari rasmiy sektor ichida ham yashirin amaliyotlar uchun qulay muhit yaratadi (O'zbekiston Respublikasi, 2017; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2020, 2021a, 2021b; Alimov and Isroilov, 2020; Transparency International, 2024).

Bu ayniqsa “oq yoqali” segment uchun xos bo‘lib, u formal institutlardan chetda emas, balki ular bilan aloqador holda ishlaydi.

To‘rtinchi determinant - fuqarolik faolligi va ijtimoiy ishonch. Ochiqlik, jamoatchilik nazorati va ijtimoiy sheriklik institutlari samarali ishlamagan sharoitda iqtisodiy agentlar davlat bilan munosabatlarni o‘zaro foydali ijtimoiy kontrakt emas, balki xarajat manbai sifatida qabul qiladilar (O‘zbekiston Respublikasi, 2014a, 2014b, 2018). Bu esa soliq to‘lash intizomini pasaytiradi, qonuniyligni ichki qadriyatga emas, tashqi majburlovga aylantiradi.

Beshinchi determinant - naqd pul aylanishining yuqoriligi va raqamli izlarning yetarli emasligi. Naqd hisob-kitoblar yashirin tranzaksiyalar uchun qulay bo‘lib, real aylanmani kuzatish, iste‘mol va sotuvlar o‘rtasidagi tafovutlarni aniqlash, hamda riskga asoslangan soliq monitoringini tashkil etishni qiyinlashtiradi. Shu sababli so‘nggi yillarda elektron to‘lovlar va raqamli hisob-fakturalarni joriy etish yashirin iqtisodiyotga qarshi siyosatning markaziy elementiga aylanmoqda (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2025; Ashurov, 2023a, 2023b).

1-jadval.

Asosiy determinantlar, ularning yuzaga kelish sabablari va oqibatlari

No	Asosiy determinantlar	Yuzaga kelish sababi	Ta‘sir yo‘nalishi	Makroiqtisodiy oqibat
1	Fiskal yuklamalar	Soliq va hisobot xarajatlarining nisbatan yuqoriligi	Oshiradi	Soliq bazasining torayishi va ikki tomonlama buxgalteriya amaliyotlari
2	Ijtimoiy badallar	Majburiy badallar va rasmiy bandlik xarajatlari	Oshiradi	Ish haqini yashirish va norasmiy yollash
3	Mehnat bozorini tartibga solish	Qattiq huquqiy me‘yorlar va hujjatlashtirish talablari	Oshiradi	Rasmiy bandlikdan chekinish va qisqa muddatli kontraktlar
4	Tartibga solishning zichligi	Ro‘yxatdan o‘tish, litsenziyalash va tekshiruvlar murakkabligi	Oshiradi	Mikrobiznesning norasmiy sektorga o‘tishi
5	Fuqarolik faolligi va ishonch	Davlat institutlariga ishonchning pastligi	Oshiradi	Soliq intizomining susayishi va ijtimoiy kontraktning zaiflashuvi
6	Soliq madaniyati	Majburiyatni iqtisodiy manfaat bilan bog‘lay olmaslik	Oshiradi	Qonunga bo‘ysunish motivatsiyasining pasayishi
7	Davlat boshqaruvi sifati	Korrupsiya, selektiv nazorat va diskresiyaning yuqoriligi	Oshiradi	Halol raqobatning buzilishi va “oq” segment kengayishi

Manba: mualliflar ishlanmasi.

1-jadvalda keltirilgan determinantlar orasida o‘zaro kumulyativ aloqa mavjud. Masalan, yuqori fiskal yuklama o‘z-o‘zicha norasmiylashuvga olib kelmasligi mumkin, biroq u past institutsional ishonch, korrupsiya va tekshiruvlarning selektivligi bilan qo‘shilganda yashirin iqtisodiyot uchun kuchli rag‘batga aylanadi. Xuddi shuningdek, mehnat bozorining qattiq tartibga solinishi samarali sud-huquq tizimi va arzon rasmiylashtirish mexanizmlari mavjud

bo'lgan davlatlarda salbiy oqibat bermasligi mumkin, ammo tranzaksiya xarajatlari yuqori bo'lgan sharoitda u norasmiy yollashning strukturaviy sababiga aylanadi (Burov, Khudaynazarov and Mamatkulov, 2020; Dell'Anno, 2022; Makarova, Chusov and Kravtsova, 2023).

Bu yerda muhim nuqta shundaki, yashirin iqtisodiyot ko'pincha "rational exit" - iqtisodiy agentlarning rasmiy institutlardan oqilona chekinishi sifatida yuzaga keladi. Agar rasmiy sektor keltiradigan huquqiy himoya, moliyalashtirish, sud tizimiga kirish va bozor infratuzilmasidan foydalanish kabi afzalliklar uning xarajatlarini qoplama, agentlar qisqa muddatli foyda asosida norasmiylashuvni tanlaydilar. Demak, muammoni hal qilishning markazida jazolash emas, rasmiy sektorning funksional jozibadorligini oshirish turishi kerak.

Makroiqtisodiy nuqtai nazardan, yashirin iqtisodiyotning yuqori ulushi rasmiy statistik ko'rsatkichlarning to'liqligi, fiskal rejalashtirish, pul-kredit siyosati transmissiyasi va bandlik ko'rsatkichlarining aniqligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi. O'zbekiston bo'yicha rasmiy ma'lumotlar kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushi 2025-yil yakuniga ko'ra 26,9 foiz darajasida ekanini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkich 498,04 trln so'mlik qo'shilgan qiymatga teng bo'lib, kuzatilmaydigan faoliyat milliy iqtisodiyotda ikkinchi, yashirin segment emas, balki to'laqonli sistemik qatlam ekanini tasdiqlaydi (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, 2024).

Xalqaro baholashlarda ko'rsatkichlar yuqoriroq chiqishi mumkin. World Economics QIES bazasi O'zbekiston norasmiy iqtisodiyoti ulushini 2026-yilda taxminan 28-30 foiz diapazonida baholaydi (World Economics, 2026). Rasmiy va tashqi baholashlar o'rtasidagi tafovutdan metodologik xulosa shuki, yashirin iqtisodiyot hajmi bitta raqam bilan emas, balki baholash intervali bilan ifodalanganda maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday interval yondashuvi siyosiy qarorlar qabul qilishda ehtiyotkorlikni oshiradi va o'lchashdagi noaniqlikni hisobga olish imkonini beradi.

Kuzatilmaydigan iqtisodiyotning makroiqtisodiy oqibatlari kamida to'rtta kanal orqali namoyon bo'ladi.

Birinchi kanal - fiskal yo'qotishlar: soliqqa tortilmaydigan aylanmalar va yashirilgan ish haqi byudjet daromadlarini kamaytiradi.

Ikkinchi kanal - statistik buzilishlar: ishlab chiqarish, bandlik va daromad ko'rsatkichlari to'liq aks etmagani sababli iqtisodiy siyosatning kalibrlanishi qiyinlashadi.

Uchinchi kanal - raqobatning buzilishi: rasmiy sektorda ishlovchi firmalar yashirin raqobatchilar bilan noteng sharoitda qoladi.

To'rtinchi kanal - institutsional oqibatlar: qonunga bo'ysunish madaniyati susayadi, ijtimoiy ishonch eroziyasi yuz beradi va davlat bilan biznes o'rtasida strategik ishonchsizlik mustahkamlanadi (Abduganiev, 2025; Abdullaeva, 2021; Kurpayanidi, 2024, 2025).

2-jadval

O'zbekiston Respublikasida kuzatilmaydigan iqtisodiyot ko'lami

Ko'rsatkich	Hajmi (trln so'm)	YaIMdagi ulushi (%)
Rasmiy iqtisodiyot	1 351,96	73,1
Kuzatilmaydigan iqtisodiyot	498,04	26,9
Jami	1 850,00	100,0


Manba: rasmiy statistik ma'lumotlar asosida mualliflar ishlanmasi.

Rasmiy va kuzatilmaydigan iqtisodiyot nisbatining tahlili.

2-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston iqtisodiyotining deyarli chorak qismi rasmiy statistik kuzatuvning to'liq qamroviga kirmaydi. Bu holat, bir tomondan, iqtisodiyotning sezilarli qismi aholining real daromadlari va bandligini qo'llab-quvvatlab turganini anglatadi. Boshqa tomondan esa, iqtisodiy o'sishning sifati, uning soliqqa tortiladigan bazaga aylanish darajasi va fiskal qayta taqsimlash samaradorligi masalalarini keskinlashtiradi. Rasmiy sektorda yaratilayotgan 73,1 foizlik ulush iqtisodiy tizimning institutsional "yadrosi"ni ifodalaydi; 26,9 foizlik kuzatilmaydigan qatlam esa shu yadro bilan parallel yashovchi va ko'plab hollarda undan oziqlanuvchi segment sifatida namoyon bo'ladi.

Bu nisbatdan kelib chiqadigan muhim xulosa shuki, O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash iqtisodiy o'sishga zid siyosat bo'lmasligi kerak. Aksincha, u o'sishni rasmiylashtirish, mahsuldorlikni oshirish va kapitalizatsiyaga olib chiqish siyosati sifatida qurilishi lozim. Norasmiy va mikro faoliyatni birdaniga siqib chiqarish qisqa muddatda daromadlar va bandlikka salbiy zarba berishi mumkin; shu sababli differensial yondashuv zarur: huquqiy jihatdan ruxsat etilgan, biroq ro'yxatdan o'tmagan segmentlar uchun rag'batlantiruvchi legallashtirish; korrupsion va jinoiy segmentlar uchun esa qat'iy repressiv va monitoring mexanizmlari qo'llanishi lozim (Alimov and Isroilov, 2020; Suleymanov, 2022; Makarova, Chusov and Kravtsova, 2023).

O'zbekistonda rasmiy va kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushi



1-rasm. Rasmiy va kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushi

Manba: 2-jadval asosida mualliflar tomonidan tuzildi.

Tarmoqlar bo'yicha differensiallik.

Kuzatilmaydigan iqtisodiyot tarmoqlar bo'yicha notekis taqsimlangan. Bu notekislik fenomenning universalligi emas, balki sektorlarning texnologik, tashkiliy va institutsional xususiyatlari bilan belgilanadigan differensial tabiatini ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligi, xizmatlar va qurilish singari mehnat talabchan, ko'p sonli mayda agentlar ishtirok etadigan tarmoqlarda qayd etilmagan aylanmalar va norasmiy bandlik ulushi yuqori bo'ladi. Sanoatda esa kapital sig'imi, yirik korxonalarining ustunligi va nazoratning nisbatan kuchli mexanizmlari sabab rasmiylashtirish darajasi yuqoriroq (Burov, Khudaynazarov and Mamatkulov, 2020; O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, 2024).

3-jadval.

O'zbekiston Respublikasida kuzatilmaydigan iqtisodiyotning tarmoqlar bo'yicha tahlili


Iqtisodiyot tarmoqlari	Ulushi (%)	Hajmi (trln so'm)	Yuzaga kelish xususiyatlari
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	62,6	254,72	Mayda ishlab chiqaruvchilar ko'pligi, oila mehnati, mavsumiylik va statistik qamrov cheklovlari
Xizmat ko'rsatish	26,9	109,45	Naqd pul to'lovlari, mikroxitmatlar va norasmiy mehnat munosabatlari
Qurilish	23,5	95,62	Subpudrat zanjirlari, vaqtinchalik ishchi kuchi va shaffof bo'lmagan ish haqi fondi
Sanoat	9,4	38,25	Kapital sig'iminin yuqoriligi va nisbatan kuchli rasmiylashtirish

Manba: rasmiy statistik materiallar asosida mualliflar ishlanmasi (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, 2024).

Tarmoq natijalarining muhokamasi.

3-jadvalga ko'ra, kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushining eng yuqori ko'rsatkichi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida kuzatiladi. Buni bir necha omillar bilan tushuntirish mumkin: mayda ishlab chiqaruvchilarning ko'pligi, oila mehnatiga tayanish, mavsumiylik, mahsulot realizatsiyasining bozorlar orqali amalga oshirilishi, shuningdek, ayrim hollarda hisob-kitoblarning naqd yoki natural shaklda yuritilishi. Ushbu sektorning o'ziga xosligi shundaki, undagi norasmiylik doimo jinoiy xarakterga ega emas; ko'pincha u institutsional va statistik qamrovning yetarli emasligi natijasidir.

Kuzatilmaydigan iqtisodiyotning tarmoqlar bo'yicha taqsimoti



2-rasm. Kuzatilmaydigan iqtisodiyotning tarmoqlar bo'yicha ulushi

Manba: 3-jadval asosida mualliflar tomonidan tuzildi.

Xizmatlar sektorida kuzatilmaydigan iqtisodiyotning salmoqli ulushi naqd pulga asoslangan tranzaksiyalar, uy xo'jaliklari darajasidagi xizmat ko'rsatish, shaxsiy mehnat va platformalashmagan mikrofaoliyat bilan izohlanadi. Qurilishda esa norasmiy bandlik,

subpudrat zanjirlarining murakkabligi, vaqtinchalik ishchi kuchidan foydalanish va haqiqiy ish haqi fondini yashirish amaliyotlari muhim rol o'ynaydi. Sanoatdagi nisbatan past ulush esa rasmiylashtirishning kuchliligidan dalolat bersa-da, bu sohada ham xomashyo, yordamchi xizmatlar yoki logistika zanjirlarida yashirin elementlar bo'lishi mumkin (Burov, Khudaynazarov and Mamatkulov, 2020; Makarova, Chusov and Kravtsova, 2023).

Mazkur tarmoq tafovutlari siyosat uchun juda muhim xulosa beradi: yashirin iqtisodiyotga qarshi universal, bir xil vositalar ishlamaydi. Qishloq xo'jaligida statistik qamrovni, kooperatsiya va raqamli bozor infratuzilmasini kuchaytirish muhim bo'lsa, xizmatlar sohasida elektron to'lovlar va yengillashtirilgan ro'yxatdan o'tish rejimlari samaraliroq bo'lishi mumkin. Qurilishda esa mehnat shartnomalarini raqamlashtirish, subpudrat zanjirlarini kuzatish va riskga asoslangan audit mexanizmlarini kuchaytirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Yashirin iqtisodiyotning yuqori ulushi iqtisodiy o'sishning ekstensiv va intensiv komponentlari o'rtasidagi nomutanosiblikni ham aks ettiradi. Rasmiy YaIM o'sib borayotgan bir paytda, ushbu o'sishning qanchalik qismi rasmiy soliq bazasiga aylanishi, qanchalik qismi korporativ hisobotlarda to'liq aks etishi va qanchalik qismi mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilishi masalasi ochiq qolmoqda. Agar o'sishning sezilarli qismi kuzatilmaydigan qatlamda qolsa, davlat investitsiyalari va ijtimoiy siyosat uchun resurs bazasi cheklanadi, iqtisodiy siyosatning parametrik aniqligi pasayadi va makroprognozlar xatolik xavfi ortadi (Abduganiev, 2025; World Economics, 2026; O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, 2024).

Yashirin iqtisodiyotning yana bir muhim oqibati - halol raqobat muhitining deformatsiyasi. Soliq va mehnat qonunchiligi talablariga to'liq rioya qiluvchi korxonalar yashirin aylanmalar hisobiga xarajatlarini sun'iy ravishda pasaytiruvchi subyektlar bilan raqobatlashishga majbur bo'ladi. Bu esa mahsuldor, innovatsion va uzoq muddatli rivojlanishga yo'naltirilgan biznes modellarni jazolaydi, rent-izlovchi va qisqa muddatli strategiyalarni esa rag'batlantiradi (Kurpayanidi, 2024, 2025, 2026). Natijada kapitalning sifatli to'planishi, texnologik yangilanish va investitsion ishonch zaiflashadi.

Korrupsiya bilan aloqadorlik ham alohida e'tiborga loyiq. Transparency International ma'lumotlari va milliy korrupsiyaga qarshi siyosat hujjatlari shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy shaffoflik va boshqaruv sifati o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud (O'zbekiston Respublikasi, 2017; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2020, 2021a, 2021b; Transparency International, 2024). Korrupsiya nafaqat noqonuniy daromad olish vositasi, balki rasmiy institutlarning tanlab qo'llanishi orqali yashirin iqtisodiyot uchun "himoya xizmatlari"ni ham yaratadi. Shuning uchun yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashni korrupsiyaga qarshi siyosatdan ajratib bo'lmaydi.

Biroq tadqiqot natijalari yana bir nozik xulosani ko'rsatadi: kuzatilmaydigan iqtisodiyotning ma'lum qismi iqtisodiy tizimdagi moslashuv funksiyasini bajaradi. Past daromadli uy xo'jaliklari, o'zini o'zi band qilganlar, mavsumiy ishchilar va mikroxizmatlar ko'rsatuvchi qatlamlar uchun norasmiy sektor omon qolish mexanizmi hisoblanadi. Shu sababli muammoni to'liq kriminalizatsiya qilish ilmiy va amaliy jihatdan to'g'ri emas. Rasmiylashtirish siyosati ijtimoiy sezgir, bosqichma-bosqich va iqtisodiy agentlar uchun foyda keltiruvchi bo'lishi lozim (Abdullaeva, 2021; Burov, Khudaynazarov and Mamatkulov, 2020; Dell'Anno, 2022).

Siyosiy takliflar va institutsional mexanizmlar.

Birinchi yo'nalish - fiskal va ma'muriy xarajatlarni maqbullashtirish. Yashirin iqtisodiyotning ruxsat etilgan, biroq ro'yxatdan o'tmagan segmentlarini rasmiy sektorga jalb qilish uchun soddalashtirilgan soliqqa tortish rejimlari, yengil hisobot standartlari, boshlang'ich davr uchun vaqtinchalik preferensiyalar va "bir darcha" tamoyiliga asoslangan registratsiya mexanizmlari kengaytirilishi lozim. Bunda formalizatsiyaning foydasi - kreditga

chiqish, davlat xaridlarida ishtirok etish, huquqiy himoya va platforma xizmatlariga kirish - aniq ko'rsatilishi zarur.

Ikkinchi yo'nalish - raqamlashtirishni chuqurlashtirish. Elektron hisob-fakturalar, markirovkalash, onlayn-kassa tizimlari, bank va soliq ma'lumotlarining integratsiyasi, platforma iqtisodiyoti ishtirokchilarini hisobga olish, QR-to'lovlar va mobil fiskallashtirish vositalari yashirin iqtisodiyotning tranzaksion afzalliklarini pasaytiradi (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2025; Ashurov, 2023a, 2023b). Biroq raqamlashtirishning o'zi yetarli emas; uning muvaffaqiyati ma'lumotlar sifati, idoralararo integratsiya va xavfga asoslangan analitika bilan belgilanadi.

Uchinchi yo'nalish - korrupsiya va selektiv nazoratga qarshi institutsional choralar. Davlat xaridlarining shaffofligi, jamoatchilik nazorati, ochiq ma'lumotlar, tekshiruvlarni riskga asoslash, mansabdor shaxslar diskresiyasini cheklash va ichki audit mexanizmlarini kuchaytirish yashirin iqtisodiyotning "oq" segmentini toraytiradi (O'zbekiston Respublikasi, 2014a, 2018, 2021; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2021b). Bu yerda asosiy tamoyil - jazolashning muqarrarligini oshirish, biroq ma'muriy yukni orttirmaslik.

To'rtinchi yo'nalish - tarmoqlarga moslashtirilgan siyosat. Qishloq xo'jaligida kooperatsiya, agroplatformalar va mahsulot harakatini raqamli kuzatish; xizmatlar sektorida mikroxizmatlar uchun yengillashtirilgan ro'yxatdan o'tish; qurilishda raqamli mehnat shartnomalari va subpudrat zanjirlarini monitoring qilish; sanoatda esa ta'minot zanjirlarining izchilligini oshirish ustuvor bo'lishi kerak. Ya'ni bir xil muammoning tarmoqdagi namoyon bo'lish shakli turlicha bo'lgani uchun, siyosiy instrumentlar ham differensial bo'lishi zarur.

Beshinchi yo'nalish - xulq-atvor iqtisodiyoti vositalarini qo'llash. Soliq to'lash intizomi faqat qo'rquv orqali emas, ijtimoiy norma va o'zaro ishonch orqali ham shakllanadi. Aholi va biznes uchun "formal bo'lishning foydasi"ni ko'rsatuvchi kommunikatsiya, sodiq soliq to'lovchilarni reputatsion rag'batlantirish, soddalashtirilgan servislari va individual xizmat ko'rsatish yashirin faoliyatdan chiqish xarajatlarini psixologik jihatdan ham kamaytiradi.

Oltinchi yo'nalish - "O'zbekiston - 2030" strategiyasi bilan uyg'unlik. Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish vazifasi alohida kompaniya emas, balki davlat xizmatlari sifati, hududiy rivojlanish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, raqamli davlat va kambag'allikni qisqartirish strategiyalarining kesishgan nuqtasida ko'rilishi lozim. Shundagina formalizatsiya iqtisodiy o'sish, ijtimoiy inkluziya va fiskal barqarorlikka xizmat qiluvchi uzviy yo'nalishga aylanadi.

Agar taklif etilgan yondashuv izchil amalga oshirilsa, o'rta muddatda kamida to'rtta natija kutiladi:

- (i) rasmiy bandlik ulushining ortishi va ish haqi fondining shaffoflashuvi;
- (ii) soliq bazasining kengayishi hisobiga byudjet barqarorligining mustahkamlanishi;
- (iii) halol raqobat muhitining yaxshilanishi orqali investitsion ishonchning kuchayishi;
- (iv) statistik ma'lumotlar sifatining oshishi natijasida makroiqtisodiy siyosatning aniqroq kalibrilanishi. Shu ma'noda, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish alohida maqsad emas, balki sifat jihatidan yangi iqtisodiy o'sish modeliga o'tish instrumenti sifatida ko'rilishi kerak.

Tadqiqot natijalari iqtisodiy siyosat ishlab chiquvchilari, hududiy boshqaruv organlari, soliq ma'muriyatchiligi, kambag'allikni qisqartirish dasturlari hamda biznesni qo'llab-quvvatlash institutlari uchun amaliy ahamiyatga ega. Birinchidan, maqolada taklif etilgan determinantlar xaritasi riskga asoslangan monitoring tizimlarini yaratishda qo'llanilishi mumkin. Ikkinchidan, tarmoq bo'yicha differensial yondashuv hududiy dasturlarni kalibrash, ya'ni qaysi sektorda rag'batlantirish, qaysi sektorda esa qat'iy audit ustuvorligini belgilashda foydalidir. Uchinchidan, formalizatsiya xarajatlari va foydalarini qayta muvozanatlash konsepsiyasi mikro va kichik biznesni legallashtirish bo'yicha yangi paket choralarini ishlab chiqishda metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Amaliy ahamiyat va kutilayotgan natijalar

Mazkur xulosalar yashirin iqtisodiyotga oid tadqiqotlarni davlatning “ko‘proq nazorat” paradigmasidan “yaxshiroq institutlar va arzonroq formalizatsiya” paradigmasiga siljitish zarurligini ko‘rsatadi. Demak, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo‘yicha muvaffaqiyatli model jazolarning qattiqligidan ko‘ra qoidalar sifati, servislar qulayligi, ochiqlik va ma‘lumotlar arxitekturasiga ko‘proq bog‘liq. Bu esa maqolaning amaliy tavsiyalarini nazariy jihatdan mustahkamlaydi.

Nazariy jihatdan bu holat yangi institutsional iqtisodiyotning bir necha tezislari tasdiqlaydi. Birinchidan, iqtisodiy agentlar formal qoidalarga emas, balki formal va informal institutlar kombinatsiyasiga javob qaytaradilar. Ikkinchidan, agar qoidaga rioya qilish xarajatlari yuqori, rioya qilmaslik xavfi esa past yoki selektiv bo‘lsa, yashirin faoliyat muqobil emas, balki ratsional tanlovga aylanadi. Uchinchidan, raqamlashtirish va ma‘lumotlar integratsiyasi faqat texnologik emas, institutsional islohot bo‘lib, u qoidalarni tatbiq etishning tengligini oshira olsa, norasmiylikning iqtisodiy rentabelligini pasaytiradi (Ashurov, 2023a, 2023b; Kurpayanidi, 2024, 2026).

O‘zbekiston tajribasi yashirin iqtisodiyot ko‘lami nisbatan yuqori bo‘lgan boshqa tranzitiv va o‘rta daromadli iqtisodiyotlar bilan qiyoslanganda bir necha umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarni namoyon etadi. Umumiy jihat shundaki, norasmiy sektorning kengayishi odatda davlat-biznes aloqalaridagi transaksion xarajatlar, mehnat bozorining segmentatsiyasi va naqd pul aylanmasining yuqoriligi bilan bog‘liq bo‘ladi. Biroq O‘zbekiston holatida qishloq xo‘jaligi va xizmatlar sohasining salmoqli roli, shuningdek, modernizatsiya va raqamlashtirish siyosatining bir vaqtda jadallashuvi ushbu fenomenni klassik “faqat muammo” paradigmasidan ko‘ra, “o‘tish davri muvozanatsizligi” paradigmasi orqali tushuntirishga ko‘proq imkon beradi (Abduganiev, 2025; Dell’Anno, 2022; World Economics, 2026; Schneider, 2003).

Xalqaro qiyosiy talqin va nazariy implikatsiyalar. Tadqiqot cheklovlari.

Mazkur tadqiqotning bir qator cheklovlari mavjud. Birinchidan, yashirin iqtisodiyot tabiatiga ko‘ra to‘liq kuzatilmaydi; shu sababli rasmiy va tashqi baholashlar orasidagi tafovutni butunlay bartaraf etish imkonsiz. Ikkinchidan, maqolada qo‘llangan analitik ramka determinantlar o‘rtasidagi sababiy aloqalarni nazariy va deskriptiv darajada ochib beradi, biroq ularni to‘liq ekonometrik identifikatsiya qilish uchun uzoq qatorli va yuqori sifatli panel ma‘lumotlar zarur. Uchinchidan, tarmoq kesimidagi ko‘rsatkichlar kuzatilmaydigan iqtisodiyotning ichki tarkibini to‘liq - ya‘ni norasmiy va yashirin elementlarga ajratilgan holda - aks ettirmaydi. Shu bois keyingi tadqiqotlarda MIMIC, panel regressiya, hududlararo qiyosiy baholash va mikroso‘rov ma‘lumotlarini integratsiyalovchi yondashuvlar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda yashirin iqtisodiyot fiskal, ma‘muriy, institutsional va xulq-atvor omillarining o‘zaro ta‘siri natijasida shakllanuvchi murakkab tizim ekanini ko‘rsatdi. Muammo faqat “nazoratning sustligi” bilan emas, balki rasmiy sektorning ayrim qatlamlar uchun yetarli darajada jozibador emasligi, rasmiylashuv xarajatlarining nisbatan yuqoriligi, korrupsiya xavflari, naqd pul ustunligi va statistik qamrov cheklovlari bilan tavsiflanadi. Demak, yashirin iqtisodiyotga qarshi samarali strategiya iqtisodiy agentlarning manfaatlari va davlatning fiskal manfaatlarini bir nuqtada uyg‘unlashtira olishi lozim.

Rasmiy ma‘lumotlar kuzatilmaydigan iqtisodiyot hajmi YaIMning 26,9 foiziga tengligini, tarmoqlar kesimida esa qishloq xo‘jaligi, xizmatlar va qurilishda uning ulushi ayniqsa yuqori ekanini ko‘rsatadi. Bu O‘zbekiston iqtisodiyotida norasmiy qatlam strukturaviy xarakterga ega ekanini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, mazkur qatlamning ma‘lum qismi iqtisodiy va ijtimoiy moslashuv vazifasini bajaradi. Shu sababli siyosiy yondashuv repressiv emas, differensial va bosqichma-bosqich bo‘lishi zarur.

Mualliflarning fikricha, amaliy siyosat uchun eng muhim oltita ustuvor yo‘nalish mavjud:

- I. *soliq va rasmiylashtirish xarajatlarini maqbullashtirish;*

- II. elektron to'lovlar va fiskal raqamlashtirishni chuqurlashtirish;
- III. korrupsiya va selektiv nazoratga qarshi shaffof institutsiyalarni mustahkamlash;
- IV. tarmoq xususiyatlariga mos siyosat ishlab chiqish;
- V. xulq-atvor iqtisodiyoti vositalari orqali soliq madaniyatini oshirish;
- VI. yashirin iqtisodiyotni qisqartirish siyosatini "O'zbekiston - 2030" strategiyasi va davlat modernizatsiyasi bilan integratsiyalash.

Shunday qilib, O'zbekiston sharoitida yashirin iqtisodiyotni qisqartirish nafaqat fiskal bazani kengaytirish, balki halol raqobat, statistik aniqlik, investitsion ishonch va uzoq muddatli barqaror o'sishni mustahkamlashning zarur sharti hisoblanadi. Mazkur maqolada taklif etilgan institutsional yondashuv aynan shu maqsadga - iqtisodiyotni repressiv yo'l bilan "siqish" emas, balki rasmiy sektorni iqtisodiy jihatdan afzal makonga aylantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Lumepamuya/References:

Abduganiev, J. (2025) 'Shadow economy in Uzbekistan: National trends and international perspectives', *Academia Open*, 10(1). Available at: <https://doi.org/10.21070/acopen.10.2025.10548>

Abdullaeva, M. (2021) 'Tenevaya ekonomika, ee vliyanie na ekonomicheskuyu sistemu', *In Library*, 21(4), pp. 86–101. Available at: <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/8763>

Alimov, G.A. and Isroilov, B.I. (2020) *Теневая экономика, коррупция, взяточничество: Уголовно-правовая оценка. Adolat*.

Ashurov, M.S. (2023a) 'Optimising the digital economy: Overcoming institutional constraints and information asymmetries', *Экономика и предпринимательство*, 17(6), pp. 188–195.

Ashurov, M.S. (2023b) 'National innovation system: Methodological aspects', *Экономика и предпринимательство*, 17(9), pp. 408–415.

Burov, V.Yu., Khudaynazarov, A.K. and Matatkulov, I.A. (2020) 'Теневая экономика в Узбекистане: Оценка размера и структуры', *Теневая экономика*, 4(1), pp. 23–46.

Dell'Anno, R. (2022) 'Theories and definitions of the informal economy: A survey', *Journal of Economic Surveys*, 36(5), pp. 1610–1643.

Gazeta.uz (2024) 'Теневая экономика - препятствие для честного бизнеса', 16 January. Available at: <https://www.gazeta.uz/ru/2024/01/16/shadow-economy/> (Accessed: 30 March 2026).

Kurpayanidi, K. (2024) 'Multidimensional approach to combating the shadow economy: Theory and practice', *Бюллетень науки и практики*, 10(5), pp. 424–431.

Kurpayanidi, K.I. (2025) 'The shadow side of reforms: Institutional challenges of modernization in Uzbekistan', *Bulletin of the Siberian State Industrial University*, 3(53), pp. 131–143. Available at: [https://doi.org/10.57070/2304-4497-2025-3\(53\)-131-143](https://doi.org/10.57070/2304-4497-2025-3(53)-131-143)

Kurpayanidi, K.I. (2026) *Economic institutions and entrepreneurship: The theoretical-methodological analysis*. LAP LAMBERT Academic Publishing. Available at: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17933623>

Makarova, N.N., Chusov, I.A. and Kravtsova, O.V. (2023) 'Shadow economy: Content and structure', *Shadow Economy*, 7(4), pp. 335–346. Available at: <https://doi.org/10.18334/tek.7.4.120321>

O'zbekiston Respublikasi (2014a) *Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida (O'RQ-369-son)*. 5 May. Available at: <https://lex.uz/docs/-2381133>

O'zbekiston Respublikasi (2014b) *Ijtimoiy sheriklik to'g'risida (O'RQ-376-son)*. 25 September. Available at: <https://lex.uz/docs/2468216>

O'zbekiston Respublikasi (2017) *Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida (O'RQ-419-son)*. 3 January. Available at: <https://lex.uz/docs/3088013>

O'zbekiston Respublikasi (2018) *Jamoatchilik nazorati to'g'risida (O'RQ-474-son)*. 12 April. Available at: <https://lex.uz/docs/3679099>

O'zbekiston Respublikasi (2021) *Davlat xaridlari to'g'risida (O'RQ-684-son)*. 22 April. Available at: <https://lex.uz/docs/5382983>

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (2024) *YaIM ishlab chiqarish bo'yicha hisobot*. Available at: https://stat.uz/img/02_-vvp_press-reviz-2024_rus_p74252.pdf (Accessed: 30 March 2026).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2020) *Korrupsiyaga qarshi murossasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish... to'g'risida (PF-6013)*. 29 June. Available at: <https://lex.uz/docs/5495531>

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2021a) *Korrupsiyaga qarshi murossasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish... to'g'risida (PF-6257)*. 6 June. Available at: <https://lex.uz/docs/5495531>

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2021b) *Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etish... to'g'risida (PQ-5177)*. 6 June. Available at: <https://lex.uz/docs/5495538>

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2025) *Naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish... to'g'risida (PF-246)*. 10 December. Available at: <https://lex.uz/uz/docs/-7897630>

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2026) *"O'zbekiston - 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida (PF-22)*. 16 February. Available at: <https://lex.uz/ru/docs/-8050787>

Rakhmanov, L. (2023) 'O'zbekistonda xufiyona iqtisodiyot ulushini kamaytirishda moliyaviy instrumentlar', *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 1(6), pp. 189–195.

Schneider, F. (2003) *Hiding in the shadows: The growth of the underground economy*. International Monetary Fund.

Suleymanov, S. (2022) *Теоретические основы противостояния преступности на потребительском рынке*. Litres.

Sutherland, E.H. (1983) *White-collar crime: The uncut version*. Yale University Press.

Sutherland, E.H. (2017) 'Is "white-collar crime" crime?', in *White-collar criminal* (pp. 3–19). Routledge.

Transparency International (2024) *Corruption perceptions index: Uzbekistan*. Available at: <https://www.transparency.org/en/cpi/2024/index/uzb> (Accessed: 30 March 2026).

World Economics (2026) *Informal economy of Uzbekistan (QIES)*. Available at: <https://www.worldeconomics.com/Informal-Economy/Uzbekistan.aspx> (Accessed: 30 March 2026).